

MA'RIFATPARVAR AJDODLARIMIZ

*Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi
ilmiy hodimi -Yuldasheva Dilfuza*



**Muhammadsharif So'fizoda
(1869-1937)**

Buyuk Ahmad Muhammad Ubayd ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1993-yil 23-iyul) bergen yangi ma'lumotga ko'ra, Muhammadsharif So'fizoda o'z tarjimai holida: "Men 1880-yilning 29 yanvar kunida Chust shahridagi ko'nchigarlik jamoasida tug'ilganman", - deydi. Uning shaxsiy ishidagi savol varaqasida berilgan ma'lumot ham shuni tasdiqlaydi. Unda: "So'fizoda 1880-yilda kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan, ma'lumoti o'rta, asosiy kasbi o'qituvchilik, qilib turgan vazifasi va ishi shoirlilik bo'lib, oilasi 8 jordan iborat", deb ko'rsatilgan.

Muhammadsharif So'fizodaning adabiyotga ixlosi erta uyg'onadi. U onasining xohishiga ko'ra, qo'shnisi Manzura otindan xat-savod o'rganib, eski maktabda ta'lim oladi. Zukko va xushovoz Manzura otin aytgan ertak, doston va qo'shiqlar yosh Muhammadsharifda adabiyotga bo'lgan havasini uyg'otadi. U Hofiz, Bedil, Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi allomalar ijodini chuqur o'zlashtirib, she'rlar mashq qila boshlaydi. Toshkentda chiqadigan "Turkiston viloyatining gazeti" kabi Qozon, Orenburg va Boqchasaroyda chiqadigan nashrlar bilan qiziqadi. Boku va Tiflisda chop etilgan ozar tilidagi asarlarni ham mutolaa qiladi.

1893-1899-yillarda Muhammadsharif So'fizoda Qo'qonda yashab, Muqimiy, Furqat ta'sirida "Vahshiy" taxallusi bilan hajviy asarlar yozadi Uning "Dakanang", "Bedanang", "Ayting bu so'zimni", "O'pay", "G'ubor dardu olam" kabi hajviy va lirik g'azallari e'tiborga loyiq. Biroq, hali Muqimiy hajviyasi zarbidan qutulib ulgurmagan zamona hokimlari yosh Muhammadsharifning keskin tanqidiga qarshi hujum boshlaydilar. Oqibatda, u 1899-yili Qo'qondan Chustga qaytib keladi. Oradan ikki yil o'tgach, uni amir-amaldorlar dahriylikda ayblab, qatl etishga hukm chiqaradilar.

Muhammadsharif So‘fizoda “Chustdan qochib, Mir viloyatiga tashrif qilib, muddati 14 yil har mamlakatda yurub” (“Turkiston viloyatining gazeti”, 1914, 10-son) umr kechiradi. Xuddi shu yillar (1900-1914) So‘fizoda ijodining yangi bosqichi boshlanadi. U “Avval Bokuga borib, Jalil Qulizoda, Sobir Tohirzoda, Muhammad Hodiy kabi ozarbayjon adabiyotining taraqqiyatining vakillari bilan tanishadi. So‘ng Arabiston, Hindiston va Turkiya mamlakatlarida bo‘lib, oddiy xalq hayotini ko‘radi. 1910-1913-yillarda Qo‘ng‘irotda muallimlik qiladi, ma’rifatparvarlik ruhidagi she’rlarini yozib, Boku va Orenburgda chiqadigan gazeta va jurnallarda tez-tez chop etadi. Uning shu yillarda yaratgan she’rlari orasida ayniqsa, “O‘zbek xonimiga”, “Xonimlar isminda”, “Vatan”, “Muslimalar” asarlari diqqatga sazovordir.

So‘fizoda 1913-yilda Chustga qaytib kelib, yetim bolalar uchun maktab ochadi va unda muallimlik qilib, dunyoviy fanlarni yengil va yangi usulda o‘rgata boshlaydi. Ayrim shariat peshvolari, boy-amaldorlarni hajv qamchisi bilan savalagani bois, hokim sinf vakillari uni o‘ldirish payiga tushadilar. Buni sezgan shoir 1915-yili yana xorijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo‘ladi.

Bu safar davomida u dastlab Hindiston, so‘ng Afg‘onistonda o‘qituvchilik bilan mashg‘ul bo‘ladi. 1918-yilda Afg‘oniston maorif vazirining o‘rinbosari sifatida Turkiston (Toshkent) ga kelib, afg‘on vakolatxonasida tarjimon bo‘lib ishlaydi. So‘fizoda o‘z Vataniga qaytib kelgach, yana hajviy she’rlar yozishda davom etadi. U munofiq rahbarlar va g‘animlar qarshiligiga duch kelsa ham o‘z xalqiga xizmat qilishdan zarracha to‘xtamaydi. Uning asarlari “Qizil O‘zbekiston”, “Mushtum”, “Farg‘ona” kabi gazeta va jurnallarda tez-tez bosilib turadi.

1925-yilning 13-avgustida “Farg‘ona” gazetasida “Xushchaqchaq qalamlar” sarlavhasi ostida uning bir qator hajviy she’rlari chop etiladi. Uning “Haqiqatdan ko‘z yumganlar”, “Qalaysizlar?”, “Saylovga” kabi she’rlarida o‘scha suronli yillar nafasi eshitiladi. 1934-yilda esa So‘fizoda “Bayram nashidalari” nomli dostonini yozadi. So‘fizodaga o‘zbek adabiyoti oldidagi xizmatlari uchun Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan bir kunda 1926-yilning 27-fevralida O‘zbekiston hukumati qarori bilan “O‘zbekiston xalq shoiri” yuksak unvoni beriladi.



**Abdulhay Tojiyev
(1899-1938)**

Hayotning achchiq-chuchugini erta totgan Abdulhdy bolalik gashti nimaligini bilmay o'sdi. Bizda uning yoshligi haqida ma'lumotlar ko'p emas, ammo uning bolaligi yaqin qarindoshlarining ko'magida azim Toshkentning ko'hna go'shalaridan Egarchi mahallasida o'tgani aniq. U dastlab mahapla masjidi qoshidagi eski maktabda, so'ng Munavvar qori Abdurashidxonovning jadid maktabida tahsil oldi. Tengdoshlariga nisbatan ziyrak yigit bo'lgan Abdulhay Tojiyev o'z atrofida kechayottan jarayonlarga befarq qarab tura olmadi. U 1919 yildan toshkentlik jadid taraqqiyatparvarlarining mafkuraviy rahbarligi ostida tuzilgan "Izchilar to'dasi" to'garagida faol ishtirok etdi. Bu to'garak nafaqat yoshlar orasida ilm ma'rifatni targ'ib etdi, balki ularning siyosiy bilimlarini o'stirishga, vatan kelajagi oldidagi mas'uliyatlarini oshirishga, ishtirokchilarning jismoni f aoll gasl arini rivojlantirishga intiladi.


"Izchilar to'dasi" a'zolari soni kun sayin ortib bordi. Ular yoshlarga ta'lim berishda Abdulvahhob Murodiy singari yosh, iqtidorli muallimlar bilan birga ma'lum harbiy mahoratga ega bo'lgan Birinchi jahon urush maydonlarida bo'lgan harbiy asirlarni ham jalb etadilar. Taraqqiyatparvarlar mavjud vaziyatda vatan istiqboli yo'lida kurashayotgan barcha

kuchlarni birlashtirishga, Turkistondagi zulm va bosqinchilikka qarshi kurolli kurash harakati namoyondalari bilan ham aloqa bog'lashga intildilar. Biroq, sovetlar hokimiyatining mustahkamlanishi jarayonida milliy istibdodga qarshi kurashchilar o'z pozitsiyalarini yo'qotib bordi.

Xalq maorifi masalasi uning 1922-23 yillarda Turkiston gazetasida mas'ul muharrirligi davrida yozgan maqolalarida yana-da kengroq o'z aksini topdi. Abdulhay Tojiyev o'z maqolalarida sovetlarning balandparvoz shiorlar ostida boshlagan xalq maorifini rivojlantirishga qaratilgan siyosatining kamchiliklarini tahlil etadi. Hech qanday moddiy asossiz tashkil etilgan sovet maktablarida darslik va o'qituvchilarning yo'qligi, qabul qilingan qarorlarning qogozda qolayotganini yozadi. U xalq maorifssek murakkab va katta ahamiyatlik masalani endilikda mahalliy byudjetga tashlab qo'yilayotganini tanqid qiladi.

A.Tojiyevning o'tkir istehzolar bilan yozilgan "O'zing uchun o'l yetim!" maqolasasi esa mahalliy mahkamalarning xarajatini mahalliy mablaglar hisobidan amalga oshirish haqidagi dekretni tanqid etishga bag'ishlangan. "Endi Markaz mahalliy idoralar uchun bir tiyin ham bermaydi. Bu esa mahalliy soliq va to'lovlarning oshib borishiga, xalqni talashga olib keladi", deydi. Hatgo, mahalliy qizil askarlar va temir yo'l tashkilotlari xarajatlarining ham mahalliy byudjet hisobiga o'tkazilishini aytib, "...mahalla sog'iladigan sigir, O'zing uchun o'l yetim!" deb maqolani yakunlaydi. Maorifga bag'ishlangan boshka maqolasida esa "...hayot mamotimiz maktabga bog'liq. Har qanday sharoitda maorifga xizmat qilish har bir insonning millat oldidagi burchidir", deb bunda mahalliy xukumatni eskidan maorifga xizmat qilgan tajribali ustozlarning xyumatidan foydalanishga chaqiradi. A.Tojiyev o'zining "Yangi kuch kerak" deb nomlangan maqolasida ham sovet boshqaruvining qisqa tarixidagi xatolarini yozib, "...hukumatga hdr doim bilimdon, ishbiparmon kishilar kerak bo'ladi", deydi. Shu maqsadda hukumatni mahalliy yoshlardan yana-da ko'proq malakali kadrlarni tayyorlashga da'vat etadi.

U matbuotning jamiyat hayotidagi beqiyos o‘rnini anglagan holda “Turkiston” gazetasи sahafalarida Cho‘lpon, A.Qodiriy, G.Yunus, S.Siddiq, A.Ayub, Elbek kabilar ijodiga keng o‘rin beradi. Gazetada xalq, millat ma’naviyati ravnaqi uchun dolzarb bo‘lgan maorif, til-adabiyot, sanat va teatr masalalariga ko‘proq urg‘u berildi. Uning xizmati o‘laroq haftalik gazeta xalqning sevimli nashriga aylandi va iqtisodiy imkoniyatlarining mustahkamlanishi bilan gazeta har kuni chiqadigan bo‘ldi. A.Tojiyev har doim ziyolilar masalasini millat kelajagi bilan uyg‘un tasavvur etdi



**Abdurauf Fitrat
(1886-1938)**

Abdurauf Fitrat XX asr o‘zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili, qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyachisi, o‘tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jangovar publitsist, noshir va jurnalist, talantli davlat va jamoat arbobi 1884-yilda Buxoroda tug‘ilgan (o‘z tarjimai holida yozishicha, biroq S.Ayniy uni 1886-yilda dunyoga kelgan deydi, hozirgi darsliklar va ilmiy tadqiqotlarda ham shu sanani takrorlashadi).

Fitrat - Abduraufning taxallusi bo‘lib, “tug‘ma iste’dod” ma’nosini bildiradi.

Otasi Abdurahimboy savdo bilan shug‘ullangani bois chet ellarga chiqar, dunyo ahvoldidan boxabar, o‘qimishli va taniqli odam bo‘lgan. Onasi Mustafo bibi (Bibijon) tufayli Bedil, Navoiy, Fuzuliy, Zebuniso, Uvaysiy kabi ulkan shoirlarning g‘azallaridan xabardor bo‘ladi.

Abdurauf Fitrat oilaning to‘ng‘ich farzandi bo‘lib, u boshlang‘ich tarbiyani diniy mактабда, so‘ng mashhur “Mirarab” madrasasida oladi. Fors va o‘zbek tillarining mukammal bilimdoni bo‘lmish Fitrat arab tilini ham chuqr egallab, shaharda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga, ayniqsa, jadidchilik harakatlariga qiziqadi.

Jadidlar maslahati va yordami bilan bir guruh yoshlar, jumladan Fitrat Istambulga o‘qishga yuboriladi. U 1909-1913-yillarda Turkiyada tahsil oladi. Turkiyadagi hayoti Fitratning dunyoqarashi, siyosiy ongi va adabiy didini o‘zgartiradi.

Fitratning 1909-yilda Istambulda “Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi” kitobi bosilib chiqadi. Amir asarni Buxoroda bosilishga ruxsat bermagach, Istambulda nashr ettiradi. Asar forscha yozilib, uni Hoji Muin o‘zbekchaga o‘giradi va “Turkiston viloyatining gazeti”da bostiradi (1911 y.). 1913-yilda esa asar alohida kitob holida chiqadi, unga Behbudiy kirish so‘zi yozadi. “Hibis qilish, o‘ldirish, sangsor qilish kundagi odatlardan edi, - deb yozadi Fitrat, - u zamonlarda kitob yozishning o‘zi “kofir”lik edi. Men shu vaqtarda birinchi asarni yozdim. Buxoroning idora usulini, ta’lim-tarbiya usulini, bir kuy rasmiy idoralarni tanqid qildim. Bu kitob Buxoroda tarqalar edi. Uning noshirlari bo‘lg‘on Buxoro jadidlarini tahlikaga tushirmaslik uchun amirga qaratib bir so‘zboshi yozdim va shuning bilan go‘yo, tanqidning unga emas, ma’murlariga oid bo‘lg‘onini ko‘rsatdim”.

Fitrat adabiyotning hamma janrlarida qalam tebratadi va o‘z orzu-armonlari, ezgu tilaklarini targ‘ib eta boshlaydi.

U 1910-yilda Istambulda “Sayha” (“Bong”) degan she’rlar to‘plamini bostiradi. U ham fors tilida edi. “Hind sayyohining qissasi”ni ham forschada yozdi va 1912 yilda Istambulda nashr ettiradi.

Fitrat zo‘r adabiyotshunos, kuchli nazariyachi va o‘tkir tilshunos. Uning “O‘zbek tili grammatikasi” (“Sarf”, “Nahv”, 1924-1930-yillarda olti marotaba nashr etiladi), “Tojik tili grammatikasi” (1930 y.) va til haqidagi o‘nlab maqolalari ulkan olimligidan guvohdir. “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida” kitoblari hozir ham ilmiy-nazariy qimmatini yo‘qotmagan. Fitratning “Eski o‘zbek adabiyoti namunalari”, “XVI asrdan so‘nggi o‘zbek adabiyotiga umumiylar qarash”, “Chig‘atoy adabiyoti” kabi yirik tadqiqotlari va Umar Hayyom, Firdavsiy, Yassaviy, Navoiy, Muhammad Solih, Bedil, Mashrab, Turdi, Furqat, Muqimiyy, Nodira to‘g‘risidagi kitob va maqolalari shu davr o‘zbek adabiyotshunosligida bir voqe, bir davr bo‘lib tarixga kirdi.

Abdurauf Fitratning o‘zbek musiqasi tarixi, shaxmat to‘g‘risidagi maqola, kitoblari qomusiy ilm egasi ekanligini tasdiqlaydi. “Tilimiz” maqolasida bitta “bil” o‘zagidan 98 ta so‘z yasash mumkinligini va turkiy tilning so‘z boyligi fors, arab tillariga nisbatan ko‘proq ekanligini isbotlab, lekin hozir o‘z mavqeiga ega emasligini, “eng baxtsizligini” ta’kidlaydi. Fitrat ulug‘, betakror ijodkor edi. Fitrat 1921-yilda Sharq musiqa maktabini tashkil etadi. Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari bilan birga V.A.Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etadi. Shuningdek, u “Shashmaqom” kuylarini to‘plash va notaga yozib olish ishlariga ham rahbarlik qiladi. Uning tashabbusi bilan Buxoro Shashmaqomi Uspenskiy tomonidan ilk bor notaga olinib nashr etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abduazizova N. Ma’naviyat sarchashmalarida “Jahon adabiyoti” jurnali, T. 1998. №7.
2. Abdug‘afurov A. Furqatning siyosiy publisistikasi. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 1974, № 4.

- 3.Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T., 1999.
 - 4.Jalolov A., O'zganboyev X. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. ("Turkiston viloyatining gazeti", "Taraqqiy", "Samarqand", "Sadoi Turkiston" kunnomalari asosida)T., Fan. 1993.
 - 5.Zaxiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T., "Yulduzcha" nashriyoti. 1989.
 - 6.Ziyo Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar. Tanlangan asarlar. T., 1974.
 - 7.Kattaboyev A. O'zbekiston kitob nashri tarixiga doir. "O'zbekiston ijtimoiy fanlar" jurnali. 1998, № 2, 43-45 betlar.
- .